

40.3  
A-16

**Z.Z Abdushukurova,  
S.Sidikov, S.Q.Zakirova**

# **TUPROQ GEOGRAFIYASI**

--16  
Z.Z.Abdushukurova, S.Sidikov, S.Q.Zakirova

# TUPROQ GEOGRAFIYASI

Toshkent– 2023

**Z.Z.Abdushukurova, S.Sidikov, S.Q.Zakirova Tuproq geografiyasi: O'quv qo'llanma – T., 2021. – 112 b.**

**UDK: 631.92(075.8)**

**KBK: 40.3я73**

O'quv qo'llanmada tuproqlarni geografik tarqalish omillari, tuproqlarni geografik tarqalishining qonuniyatlarini va ilmiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplami, dunyo tuproqlarining geografik tarqalishi, dunyo tuproq qoplami, dunyo yer resurslari va muhofazasi, O'zbekiston yer resurslari va muhofazasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100-Agrokimyo va agrosoilshunoslik ta'limga yo'naliishlari bo'yicha bakalavrлarni tayyorlashga mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**R. Kurvontoev** - qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti Tuproqlar fizikasi va texnologiyasi bo'limining etakchi ilmiy xodimi.

**Z.A.Jabbarov** - O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasini professori, biologiya fanlari doktori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligining 2020 yil 28 dekabrdagi 676-soni buyrug'iga muvofiq 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100- Agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'limga yo'naliishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashr etish uchun tavsija etilgan.


**ISBN: 978-9943-6915-5-1**

**«Yangi chirchiq prints» nashriёti, Тошкент, 2023 й.**

#### **So'z boshi**

Mazkur "Tuproq geografiyasi" fanidan o'quv qo'llahma 5141000-Tuproqshunoslik va 5410100-Agrokimyo va agrosoilshunoslik ta'limga yo'naliishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, Biologiya fakultetining Tuproqshunoslik kafedrasida ko'p yillar o'qitilib kelinayotgan fanning o'quv materiallari asosida yaratilgan. "Tuproq geografiyasi" fani o'quv qo'llahmasini yaratishda etakchi xorijiy OTM lar olimlaridan A.Jones, P.Panagos, The state of soil in Europe (European Union, 2012), Paul Driessen, Wageningen Agricultural University., Lecture Notes on the Major Soils of the World (2001), Stroganova M.N. and Urusevskaya I.S. Geography And Structure Of The World Soil Cover (Pedosphere), Gergely Tóth, Luca Montanarella, Vladimir Stolbovoy, Ferenc Máté, Katalin Bódis, Arwyn Jones, Panos Panagos and Mare Van Liedekerke. Soils of the European Union (2008), Status of the World's Soil Resources. Chapter 10 Regional Assessment of Soil Change in Asia, FAO, (2015), Kyuma, Kazutake; Kawaguchi, Keizaburo. Major Soils of Southeast Asia and the Classification of Soils under Rice Cultivation: Paddy Soils. Kyoto University, James G. Bockheim. Soil Geography of the USA. USA. (2014), World reference base for soil resources (2006) FAO adabiyotlardan foylanildi.

O'quv qo'llahma "Tuproq geografiyasi" fani predmeti, maqsadi va vazifalari; fanning tadqiqot uslublari va asosiy bo'limlari; O'zbekiston va dunyo xilma-xil tuproqlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish; dunyo xalqlarini er resurslari bilan ta'minlash darajasi, kurramiz tuproqlarini ekologik holati, inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi, o'rmonzorlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanish hamda ularni muammolari; tuproqshunoslik va ekologik muammolarini echish haqidagi bilimlarga ega bo'lish kabi masalalarni qamraydi.



Ushbu o'quv qo'llahma 7 ta bobdan iborat bo'lib, ular fanning namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lif metodlari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar materiallariga mos tarzda shakllantirilgan.

## 1-bob. Kirish

### Reja

1. "Tuproq geografiyasi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, mazmuni va fan sifatida o'rganishning ahamiyatni.
2. Fanning rivojlanish tarixi.
3. Tuproqlarni geografik tarqalishining asosiy jihatlari.

"Tuproq geografiyasi" fani predmeti, maqsadi va vazifalari; fanning tadqiqot uslublari va asosiy bo'limlari; dunyo xilma-xil tuproqlaridan to'g'ri va barakali foydalanish; dunyo xalqlarini er resurslari bilan ta'minlash darajasi, kurramiz tuproqlarini ekologik holati, inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi, o'rmonzorlarning taqsimlanishi va ulardan foydalanish hamda ularni muammolari; tuproqshunoslik va ekologik muammolarini echishdagi hamda tuproqshunos mutaxassis tayyorlashdagi o'rni kabi masalalarni qamraydi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga dunyo va O'zbekiston tuproqlari haqida to'g'ri va to'liq tushuncha berish, ularning tabiiy sharoitlari va tuproq hosil qiluvchi omillari, iqlimi, o'simlik va jonivorlari, inson faoliyati haqida hozirgi zamon ta'limotini berishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi: talabalarni dunyoda tarqalgan tuproq tiplari va ularning xossa xususiyatlari kabilar bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tanishtirish.

O'zbekiston, Evropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika tuproq xillarini; dehqonchilikda foydalaniladigan erlar; dehqonchilikning tabiiy sharoitga ta'siri; yaylov erlari; inson ta'sirida cho'llarning paydo bo'lishi; o'rmon erlari va ularning taqsimlanishi; tuproqlarining tarqalishi, iqlimi, rel'efi, o'simliklari materiallaridan amalda foydalanish haqida ilmiy bilimlar berishdan iborat.

Tuproq o'zida iqlim, o'simlik, tirik organizmlar, inson va topografik sharoitlarning ma'lum vaqt oralig'iда tuproq ona jinsiga ta'sir qilishini aks

ettiruvchi o'z xossasiga ega uch o'lchamli tana sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu 5 ta tuproq hosil qiluvchi omillarning har birining tavsifi va muhimligi vaqt va makonda o'zgaradi. Ayrim istisno sifatida tuproqlar hozirda o'zgarish jarayonida bo'lib, tuproq profili differentsiatsiyasi yoki ona jinsining o'zgarishi belgilari tuproq hosil bo'lish yoki pedogenet jarayonini aks ettiradi.

O'simlik va hayvonot dunyosi vakillari kabi aniq belgulanuvchi alohida ob'ektlardan farqli ravishda tuproq qoplami dunyosi o'zining beto'xtov jarayonini namoyon etadi. Uning tarkibiy qismlari vaqt yoki makon ketma-ketligida shakllanadi. Tuproqshunoslikning birinchi kunlaridayoq tuproq tasnifi uning genezisiga asoslana boshlagandir. Tuproqlarning ko'plab an'anaviy nomlari tuproqlarning hosil qiluvchi omillar pedogenetisining u yoki bu darajadagi ustunligi yoki tarixiga asoslanadi, masalan, cho'l tuproqlari (iqlim ustunlik qiluvchi omil hisoblanadi), voha tuproqlari (inson omili), o'tloqi tuproqlar (o'simlik qoplami), tog' tuproqlari (relef) yoki vulkan kulli tuproqlar (ona jins). Taqqoslash sifatida tuproq nomi ko'rinish turgan omil nomi bilan ataladi, masalan, qo'ng'ir tuproq (rangi), ishqoriy tuproq (kimyoviy tavsifi), gidromorf tuproqlar (fizik tavsifi), qumli tuproqlar (tuzulishi) va litosollar (chuqurligi).

Tuproq to'g'risidagi nisbatan aniq ma'lumotlar, faqat o'tgan asrning o'ninchi yillarda rus olimlari tomonidan berilgan. Masalan, 1908-1910 yillarda birinchi tuproq izlanuvchilaridan K.D.Glinka, N.A.Dimo, S.S.Neustruev, I.P.Gerasimov va boshqalar tomonidan tekislik va tog' tuproqlari ajratilib, tekislik qismida bo'z, qo'ng'ir va qora tuproqlar, tog'larda esa ularning analogi tarqalgan deb tasniflashadi.

Shu yo'llar bilan to'plangan ma'lumotlar va olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Dimo, Neustruev va Gerasimovlar bo'z tuproqlarni alohida zonal tuproqlar deb ajratishgan. Keyinchalik N.A.Dimo (20-30 yillarda) bir qancha ekspeditsiyalarda qatnashib to'plagan tajribalariga asoslanib, O'rta Osiyo

tuproqlarini sahro tuproq hosil bo'lish jarayoni deb belgilaydi va ularni oddiy sahro bo'z tuproqlari, sahro sariq tuproqlari va sahro gipslangan bo'z tuproqlarga bo'ladi. Tog' tuproqlariga esa: yarim sahro yoki sahro-cho'l mintaqasining tog' va tog' oldi och tusli bo'z, quruq cho'l zonasining tog'li qo'ng'ir tuproqlari va tog'li qora tuproqlarga o'xshash tuproqlarni ajratadi. Undan keyin E.N.Ivanova, I.P.Gerasimov, Tarasovlar Amudaryo quyi oqimi sug'oriladigan tuproqlari va ularni bo'linishi to'g'risida bir qancha ilmiy asarlar yozishgan (1930-1932). 1938 yilda E.P.Korovin va A.N. Rozonovlarning "O'rta Osiyo tuproq va o'simlik qoplamenti ishlab chiqarish kuchi" nomli ilmiy ishi chop etiladi, so'ngra B.V.Gorbunov; N.V.Kimberg va S.A.Shuvalovlarning 3 tomli "Pochvy Uzbekskoy SSR" nomli monografiyası 1945 yilda chop qilindi.

Ko'p yillar davomida yuzaga kelgan ko'plab tuproq tasnifi tuzilmalari tuproq paydo bo'lishi to'g'risidagi ko'plab fikrlarni kontseptsiya sifatida saqlab keldi va tasnidfa foydalaniladigan qarama-qarshi tamoyillarni aks ettirib keldi. 1950 yillarda mo'tadil va tropik iqlimli hududlarda tuproq tadqiqotlari ko'plab olib borilayotgan vaqtida xalqaro aloqalar keskin kuchaydi. Shu vaqtarda to'plangan tajriba va olimlar o'rta sidagi bilim almashinish dunyoda tuproq qoplamiga bo'lgan qiziqishni qayta tug'dirdi. Tuproqning butun ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi tasnif ishlab chiqildi.

1974 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va Qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO) Dunyo tuproq xaritasini chop etdi. Ushbu xaritani tuzish butun dunyo tuproqlari to'g'risida ma'lumot yig'ishni talab qilganligi bois qiyin kechgan. Boshlang'ich tuproq legendasi faqatgina asosiy tuproq guruhlarini aks ettirgan. 1990 yilda qayta chop etilgan tuproq xaritasi chop etildi va unda tuproq tipchalari va boshqa guruhlarini ham qamrab olindi. Tuproq tipchalari aniq ko'rsatilmagan, lekin ularni aniqlash va tafsiflash bo'yicha tafsiyalar keltirilgan.

1998 yilda Xalqaro Tuproqshunoslik jamiyatasi (IUSS) Butunjaxon Tuproq resurslari uchun ma'lumotlar bazasi (WRB) ni Tuproqlarni tizimlashtirishning yagona dasturi sifatida rasman qabul qildi.<sup>1</sup>

O'zbekiston tuproqlarining geografik tarqalishi, ularning klassifikatsiyasi, xossa va xususiyatlari hamda ularni sug'orish tasirida o'zgarishi haqida bir qancha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar chop qilingan. M.A.Pankov, M.A.Orlov, S.N.Rijov, S.P.Suchkov, M.A.Rasulov, M.U.Umarov, X.A.Abdullaev, O.Komilov, M.Baxodirov, N.F.Bespalov, J.Sattarov, Q.Mirzajonov, X.Maxsudov, I.Turapov, X.T.Risqieva, X.X.Tursunov L.T.Tursunov, R.Qo'ziev, L.A.Gafurova, M.M.Toshqo'ziev, R.Qurvontoev, T.Abdraxmanov va bir qancha olimlar borki, ular tuproqlarning butun xossa-xususiyatlarini o'rgangan holda tuproq unumdorligini tiklash, oshirish va muhofaza qilish borasida katta asarlar, qo'llanmalar va tavsiyalar yaratib, ijod qilmoqdalar.<sup>2</sup>

Tuproq bevosita Er yuzasidagi unumdor va g'ovak mineral va organik moddalardan tarkib topgan o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun tabiiy muhit hisoblanadi. Tuproq ma'lum vaqt oralig'ida iqlim, tirik organizmlar, rel'ef va boshqa genetik va ekologik omillarning tuproq hosil qiluvchi tog' jinslariga ta'sirini o'zida namoyon qiladi. Quyi qatlamlarda tuproqning ona jinsiga qadar g'ovak jinslarda hech qanday biologik faoliyot belgilarini ko'rish qiyin. Tuproq tasnifi maqsadlari uchun tuproqning quyi qatlami 200 sm qilib belgilangan. Tuproq hayotiy muhim tabiiy resurs hisoblanib, bizning atrof-muhitni boshqaradi va unga ta'sir qilgingan turli xil bosimlarga qarshi o'zgaradi.

• Tuproq Er yuzidagi bir qancha hayotiy muhim jarayonlar va ekotizim mahsuldarligi va resurslarini ta'minlashda boshqaruvchi rolini bajaradi. Bu murakkab biogeokimyoviy tizim bir vaqtning o'zida yashash muhitini bo'lib,

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va o'rmonlar barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek tuproq ekojarayonlarning xilma-xilligida ajralmas qism bo'lib, suv resurslari, uglerod va atmosfera-erde gaz almashinuvi, oziq-moddalarning tabiatda aylanishi, to'planishini ta'minlaydigan muhim tabiiy manba bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, insoniyat gullab yashnashi va davlatlar iqtisodiyoti tuproqning ko'plab vazifalari, kritik ekotizim xizmatlari va mahsuldarligiga bog'liqdir.

- Er yuzida tuproq qoplami va tuproq hosil bo'lish sharoitlariga bog'liq hosil bo'lgan tuproq tiplarining xossalardan kelib chiqib tuproq quyidagi eng muhim vazifalarni bajarishini ta'kidlab o'tish lozim:

- Tuproq insonlar va jonivorlar uchun oziq-ovqat etishtirish, tabiiy tola olish, qurilish va yoqilg'i uchun yog'och tayyorlash, shuningdek yovvoyi tabiatni muhofaza qilishda eng muhim muhit hisoblanadi. Odamzod uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat etishtirishning dunyo bo'yicha 99 % ulushi Qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish orqali erdan olinadi (FAO, 2007).

- Tuproq biz uy, yo'l va boshqa infrastruktura ob'ektlarini qurishimiz uchun fundament asos bo'lib xizmat qiladi. Qo'shimcha ravishda tuproq ko'pgina insoniyat uchun zarur infrastrukturani barpo etish uchun xom ashyo materiallari, ya'n keramika uchun gil va yoqilg'i uchun torf bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

- Tuproq qoldiq o'simlik va nobud bo'lgan hayvonot dunyosi qoldiqlari va boshqa organik chiqindilarni parchalash orqali hayotiy zarur bo'lgan oziq moddalari bilan ta'minlovchi biologik dvigatel hisoblanadi. Tuproq tirikdir: parchalanish jarayonlari tuproq mikroorganizmlarining faoliyatiga olib keladi. Chirindiga boy tuproqlar 10 mld dan ko'proq mikroorganizmlarni saqlaydi, bu er yuzidagi odamlar sonidan ham ko'prokdir. Ayni shu vaqtida ushbu mikroorganizmlarning ko'pchiligi bakteriyalardir, 1 m kvadrat tuproq unumdor qatlamida yuzlab kilometr zamburug' giflari, o'nlab kilometr sodda hayvonlar,

<sup>1</sup> Lecture Notes on the Major Soils of the World. 3-4 p.

<sup>2</sup> «Ўзбекистон тупроқларининг агрокимёвий тавсифи» маъruzalar matni 4-5.

minglab nematodalar, bir necha yuz hashoratlar, qurtlar va o'rgimchaklar, shuningdek yuzlab metr o'simlik ildizlari mavjuddir. Bir gektar unumdar erdag'i mikroorganizmlarning umumiyy massasi 5 tonna (kichik fil vazni) atrofida bo'lib, ba'zan er ustki biomassadan ham ortiq bo'ladi. Bu biota oziq moddalar aylanishining fundamental jarayonlarini yurgizuvchi, o'simlik jamoasini boshqaruvchi, zaharli moddalarni parchalovchi va tuproq strukturasini mustahkamlovchi ko'plab tuproqning kalit funksiyalarida ishtirok etadi.

- Tuproq er yuzida hayotni ta'minlovchi ko'plab tabiiy biologik va kimyoiy sikllar (ekotizim xizmatlari)ning boshqarilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uglerod, azot va boshqa butun zaruriy oziq moddalar doimo tuproq va o'simlik, geologik cho'kindilar, sizot suvlari va atmosfera o'rtasida qayta ishlanib turishida tuproq asosiy vazifani bajaradi. Ushbu biogeokimyoiy almashinishning intensivligi turli joylarda o'ziga xos kechadi va bular tuproq xossalariiga bog'liq bo'ladi.

- Tuproq tabiiy filtr bo'lib, ko'plab ifloslovchi moddalarni parchalash yoki to'plash va zaharlilagini yutish orqali zararsizlantiradi. Undan tashqari, tuproq suv toshqinlarini boshqarishda yog'in-sochin massasini saqlab qolishi va zichligi orqali oqimni daryo tizimiga tezroq etkazishi orqali eng muhim komponentlar qatoriga kiradi.

- Tuproq insoniyat ajodolarining ko'milib qolgan arxeologik va tarixiy qoldiqlarining buzilishi va emirilishidan asraydi. O'tmishdan darak beruvchi faktlar va insoniyat ajodolarining qoldiqlari toki ochilganicha ko'milgan holda qoladi. Ushbu qoldiqlarning saqlanish darajasi hududning mahalliy va tuproq sharoitlariga bog'liqdir. Shu boisdan tuproqning madaniy meroslarni saqlashdagi ahamiyati ham uning qimmatini yanada oshiradi<sup>3</sup>.

Er sharining tuproq qoplami (pedosfera) tashqi muhit bilan modda va energiya almashinuvchi ochiq murakkab tuzilgan va birikkan termodinamik

tizim hisoblanadi. Tuproq qoplami tuzilishini bir-biri bilan chambarchas bog'langan bir nechta strukturalarga ajratish mumkin: bular mikrostruktura, mezostruktura, makrostruktura va megastruktura.

Mikrostruktura (yoki elementar tuproq tuzulishi) mikrorelief yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Mezostruktura mikrostruktura bilan birga relefning ma'lum turlari va alohida tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning o'zgarishi bilan bog'liq namoyon bo'ladi. Mezostrukturaning hududiy yuzaga kelishi turli omillar bilan bog'liq bo'ladi va o'z navbatida tuproq qoplaming katta hududlarni qamrab oluvchi makro va megastrukturasini hosil qiladi.

Shunday qilib, tuproq qoplaming xilma-xilligi va hududiy tarqalishi va taqsimotining qonuniyatları er yuzasidagi bioqlimiy, litologik-geomorfologik va tarixiy-geologik omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida amalga oshadi.

Er sharining polyar belbog'i quruqlikning 13 % ini tashkil qiladi va uning 2/3 qismi Antarktida, Grenlandiya va boshqa orollar muzliklari bilan qolplangan. Bu belbog' bo'ylab 2 ta tuproq-bioqlimi – Evroosiyo va Shimoliy Amerika maydonlariga ajratiladi. Antarktidada muzlikdan holi kamgina maydonlar mavjud. Arktika va subarktika mintaqalari polyar belbog' tuproq qoplamiga ajratiladi. Arktika mintaqasi og'ir va quruq iqlimi bilan tavsiflanadi. Bu mintaqada hosil bo'lgan tuproqlar qatlamlari yupqa bo'lib, muzlaydi. Subarktika mintaqasi kam sovuq va nam iqlimga egaligi sababli bu hududlarda organik moddalarga to'yingan podzol, tundra va gleyli tuproqlar shakllanadi.<sup>4</sup>

Qishloq xo'jaligining asosini er bilan suv tashkil qilish barchaga ayon. Turli tabiiy sharoitlarda erdan to'g'ri foydalanib, ko'plab dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etkazib, aholi dasturxonini to'kin-sochin qilib kelinmoqda. Quruq iqlim sharoitda erdan foydalanishni suvsiz amalga oshirishning iloji yo'q. Dunyoda aholi soni to'xtovsiz oshib borayotgan bir

<sup>3</sup> Geography and Structure of the World Soil Cover (Pedosphere) -Stroganova M.N. and Urusevskaya I.S. 2, 4 p.

fursatda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lган talab muttasil ortmoqda. Binobarin odamlarni oziq-ovqat, kiyim kechak va boshqa turli maxsulotlar bilan to'la ta'minlash ko'p jihatdan mazkur soxaning tarraqiyotiga bog'liq. Bir jihatdan qaraganda er va suvdan iloji borichá to'liq foydalanishi hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Er sharida quruqlik 14,9 mlrd.ga ni tashkil qiladi, jami haydash uchun yaroqli erlarning maydoni 3,2 mlrd. ga dan ortiq. Shundan hozirda 1,5 mlrd. hektar er haydaladi, 3 mlrd. hektar er yaylov sifatida haydash uchun qulay bo'lган erlarning asosiy qismi qishloq xo'jaligida foydalanish muammosiga kiritilgan. Sug'oriladigan erlar maydoni dunyoda 270 mln. hektardan ko'proq.

Haydaladanigan erlar dunyoda cheklangan bo'lishiga qaramasdan ular hisobiga turli qurilishlar, shaxtalar, yo'llar, shaharlar, sanoat korxonalari va boshqa turdag'i ob'ektlar muttasil qurib kelinmoqda. Bu hol ular maydonining kamayishiga, binobarin dehqonchilik maxsulotlarining miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Haydaladigan, ayniqsa, sug'oriladigan erlar cho'llanish jarayoni natijasida foydalanishi muomalasidan chiqib ketmoqda. Inson dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagandan beri 9 mln. kv. km hudud cho'llanishga uchradi.

Haydaladigan erlar sug'orishni noto'g'ri tashkil qilish, yog'in-sochinlar shiddat bilan yog'ishi, qorlarning tez erishi, dalalarda ihota daraxtzorlarining nihoyatda siyrakligi yoki butunlay yo'qligi, eroziya kabi omillar ta'sirida har yili katta zarar ko'radi. BMT ning ma'lumotiga ko'ra, har yili shu omillar ta'siri tufayli 3 mln. ga er foydalanishdan chiqib ketadi.

Sug'oriladigan erlar sho'rланish va er osti suvlardan ko'tarilishi natijasida foydalanishdan chiqib ketadi, xuddi shu sababli yiliga 2 mln. ga er ekin ekishdan bebabxra bo'ladi.

Dunyo xalq xo'jaligi tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi sohasi hisoblanadi. Dunyoda tarqalgan asosiy tuproq tiplari, ularning maydoni, tarqalishi, paydo bo'lishi bilan bir qatorda tuproqlardan to'g'ri foydalanish va ularning unumdarligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. "Tuproq geografiyasi" fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. "Tuproq geografiyasi" fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Fan sifatida o'rganishning ahamiyati nimada?
4. Fanning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Tuproqlarni geografik tarqalishining asosiy qanday jihatlarini bilasiz?

## 2-bob. Tuproqlarni geografik tarqalish omillari

### Reja

1. Turli tuproq-iqlim sharoitlarida tuproqlarning tarqalishida tabiiy omillarning roli va axamiyati.
2. Tuproqlarni hosil qiluvchi omillar.
3. Tuproqlarning geografik tarqalishida iqlim omilining roli.
4. Rel'efning tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatidagi ahamiyati.
5. O'simlik, hayvonot olami va mikroorganizmlar tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatida.
6. Antropogen omillar.

Turli tuproq-bioiqlim sharoitlarida tuproqlarning tarqalishida tabiiy omillarning roli va axamiyati. Tuproqlarning geografik tarqalishida iqlim omilining roli. O'simlik, hayvonot olami va mikroorganizmlar tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatida. Tuproqlarning geografik tarqalishida tuproq hosil qiluvchi omillarning roli. Rel'efning tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatidagi ahamiyati. Tuproq va tuproq qoplaming evolyutsiyasi. Tuproqlar geografik tarqalishining umumiy qonuniyatları. Gorizontal va vertikal zonallik qonuniyatlar.

**Tuproqlarni hosil qiluvchi omillari** – Iqlim, geologiya, geomorfologiya, litologiya, rel'ef, o'simliklar va hayvonot dunyosi, hududning yoshi va inson faoliyati ta'sirida har xil geografik mintaqalarda turli tuproqlar tipi va tipchalarining rivojlanish va tarqalish qonuniyatları.

Markaziy Osiyo voha va vodiylarida sug'oriladigan tuproqlarining inson faoliyati ta'sirida evolyutsion o'zgarishlari, unumdorligini oshirish va ekinlarning hosilini ko'paytirish.

O'mon-dasht, cho'l, tog' oldi, tog'li va baland tog'larlagi yaylov, o'monazor va pichanzorlarda joylashgan tuproqlarda va lalmi erlarning mahsulorligini oshirish.

**Iqlim** – Markaziy Osiyo mintaqalari juda murakkab orografiq tuzilishlardan iborat bo'lganligi uchun bundagi iqlim sharoitlari ham xilmashdir. Past tekistliklarida subboreal va subtropik Iqlim ga doir ob-havo rejimi rivojlanadi. Tog' oldi va tog'li mintaqalarda quruq kontinental shimaliy subtropik iqlimga mansub tuproq va o'simliklar dunyosi tarqalgan. Nihoyat baland tog' tizmalari yonbag'irlarida o'ta kontinental subboreal iqlimga tegishli harorat rejimlari kuzatiladi.

Iqlimning Markaziy Osiyo mintaqalarida bunday holda notekis rivojlanishi, shu jumladan, cho'l, dasht, tog' va baland tog'li hududlarda harorat rejimi, yog'in-sochinning miqdori o'zgarishlari yil davomida turli ko'rsatkichlar bo'lishiga olib kelishi natijasida tuproq hosil qiluvchi omillarning turli darajadagi ta'siriga olib keladi. Natijada joylarda har xil tuproq tiplari va tipchalarining rivojlanishi kuzatiladi. Talabalar aynan iqlimning shunday o'zgarishlari oqibatida tuproqlardagi suv-fizikaviy rejimlarining bir-biridan ajralishi tufayli, joylarda har xil tuproqlar paydo bo'lishi mumkinligini nazariy tomondan bilimlarini oshirib turishlari lozim.

Markaziy Osiyoning geologik, geomorfologik, litologik jihatdan tuzilishi o'ta majmuali bo'lishi sababli, tuproq hosil qiluvchi jarayonlarida ham ularning roli juda murakkabdir. Bu omillar V.V.Dokuchaevning ta'limotiga qaraganda, tuproq paydo bo'lishida etakchi rolni o'ynashi bilan bir qatorda, hududlarda har xil tuproq guruhlarini rivojlanishida bevosita ishtirot etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida geologik davrlarning ketma-ket o'zgarishi oqibatida hududlarda ularning tutgan o'rniqa muvofiq qattiq tog' jinslarda (paleogen, neogen) va to'rtlamchi yotqiziqlarda (lyoss, delyuvial, prolyuvial va b.) tuproq paydo qiluvchi ona jinslari va har xil relef shakllari (mega, mezo, mikro releflar)

vujudga kelgan. Shu rel'ef shakllarining Markaziy Osiyo mintaqalarida har bo'lishi natijasida, ulardagi harorat rejimi, yog'in-sochin miqdori ham tur miqdorda taqsimlanadi. Bu esa hududlarda turli tuproq tiplari, tipchalari va guruhlarini rivojlanishga olib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlarni atroflich o'rganishga va bilimlarini oshirish lozimligini talab qiladi.

**O'simlik va hayvonlar dunyosi.** Markaziy Osiyoning turli geologik davrlarda o'zgarishlari oqibatida har xil tog' jinslari va geomorfologik birliklar va er yuzasida rang-barang relef shakllari rivojlangan. Shu rel'ef shakllarida har xil o'simliklar va hayvonlar dunyosi vujudga kelishi, joylarda tuproqlarning xilma-xil guruhlarini rivojlanishga ta'sir etganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

O'rmon-dasht, dasht, cho'l, tog' oldi, tog'li va baland tog'li mintaqalarga xos bo'lgan o'simliklar va hayvonlar dunyosining turlari va ularning turli tuproq guruhlarini paydo qilishdagi roli.

O'simliklarning har xil turlarining tuproqlarida chirindi mahsulotlarini tashkil etishdagi ta'siri.

**Tuproq hosil qiluvchi ona jinslari.** Markaziy Osiyo mintaqalarining geologik, geomorfologik va redefining turli joylarda har xil bo'lishi natijasida tuproqlar paydo qiluvchi ona jinslarining joylarda tarqalishi ham xilma-xildir.

Asosiy tuproq hosil qiluvchi ona jinslari quyidagilardan tashkil topgan: ko'l va dengiz qatlamlı yotqiziqlar, allyuvial, prolyuvial, dellyuvial va ellyuvial yotqiziqlar va agroirrigatsion oqizmalar.

Bu yotqiziqlar turli geologik davrlarda hamda inson faoliyati (agroirrigatsion yotqiziqlar) ta'sirida shakllangan bo'lib, tuproq profilida toshli, qumli, qumoqli va loyli qatlamlarni vujudga kelishda bevosita ishtirok qilishi haqidagi ma'lumotlar tahlili.

**Inson faoliyati.** Bu omil ta'sirida Markaziy o'rmon-dasht, dasht, cho'l, tog' oldi, tog'li va baland tog'li tuproqlar hududlarida turli darajada

shakllangan, sug'oriladigan va madaniylashtirilgan tuproq guruhlari yuzaga kelishi, bir-biridan genetik-geografik jihatdan farqlari.

Inson faoliyati ta'sirida o'rmon-dasht, dasht, cho'l zonasida shakllangan qumslig'i, kashtan, sur tusli qo'ng'ir, cho'l qumli, taqirli o'zlashtirilgan qumslig'lar va sug'oriladigan bo'z, bo'z-o'tloqi, o'tloqi va jigarrang tuproqlar o'simliklari, o'zlashtirilagan, yangidan sug'oriladigan, sug'oriladigan va qadimdan sug'oriladigan tuproqlarning evolyutsion o'zgarishlari va ularning o'mumhorigini oshirish bo'yicha odamlar tomonidan qo'llanilib kelayotgan tadbirlar.

### Nazorat savollari

1. Tuproqlarni geografik tarqalishida qanday omillarni bilasiz?
2. Tuproqlarni geografik tarqalishida omillarning roli qanday?
3. Rel'efning tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatidagi shamiyatni qanday?
4. Tuproqlarning geografik tarqalishida iqlim omilining roli qanday?
5. O'simlik, hayvonot olami va mikroorganizmlar tuproqlarning geografik tarqalishida qanday ishtirok etadi, ularning roli nimalardan iborat?

### **3-bob. Tuproqlarni geografik tarqalishining qonuniyatları va ilmiy asoslari**

#### **Reja:**

1. Tuproq va tuproq qoplamingin evolyutsiyasi.
2. Tuproqlar geografik tarqalishining umumiy qonuniyatları.
3. Gorizontal va vertikal zonallik qonuniyatlar.
4. Tuproqlarning zonal qonuniyat.
5. Tuproqlarning zonal tiplari va ularning xususiyatlari.
6. Tog' zonasni tuproqlari
7. Qo'shimchalar.

Tuproq-yuqorida qayd qilinganidek landshaft ichidagi landshaftdir. Ujonli va jonsiz tabiat hosilasi. Uning hosil bo'lishida barcha tabiat komponentlar, jumladan inson va vaqt ishtirok etadi.

Tuproqlarning zonal qonuniyati XIX asr oxirida V.V.Dokuchayev tomonidan kashf qilingan. Zonallik bu butun tabiiy borliqni qutblardan ekvator tomon qonuniy ravishda o'zgarib borishi va uning natijasida tuproq zonalarining shakllanishidir. Uning asosida issiqlik va nimlikning uzgarib borishi va bir-biriga munosabati yotadi. Tabiiy sharoitga mos holda tuproq zonalarini, ular doirasida tuproq tiplari va ularning turli kichik tiplari shakllangan.

Muz zonasasi tuproqlari harorat pastligi tufayli sovuqdan nurash kuchli, ammo kimyoviy, fizik jarayonlar sust. Shu sababli tuproq toshlardan iborat, il yo'q hisobida. Muzloq bo'lganligi tufayli soliflyusiya va grunitning shishishi xosdir. Tuproq besh, ko'pburchakli palaxsalardan iborat (poligonal).

Suv erozion jarayonlar juda sust, ayniqsa yozning qisqaligidan. Termokarst landshaftlar xos. Eng issik oy avgust, bu oyda o'rtacha harorat 4-5° atrofida. Yog'inlar 200-400 mm bulutlik, sertumanlik, kuchli shamol bu zona uchun xos.

Arktika tuprog'i, yupqa, gilsiz neytral reaksiaga ega, tuproq temirga boy fitomassa kam, umumiy zahirasi 5t/ga. Yer betida tirik massa, yer ostidakidan ko'p. Shu bilan u tundra, cho'l subtropik tuproqlaridan farq qiladi (bularda fitomassa teskari). (Milkov, 1977).

Tundra zonasida yog'inlar 200-400 mm, yil bo'yli soat 13 da nisbiy namlik 70 % dan yuqori. Sibir tundralarida muzloq qatlamning qalinligi 400-800 m. Tundra tuproqlari ortiqcha namlanganligi bilan ajralib turadi. Bu gleylanishni kuchaytiradi. Shu sababli tuproqda kul (sizliy) va yashil (selenovataya) rangli bo'ladi. Gumus kam, chunki gumuslanish, minerallanish sust. Tuproq nordon, asosi kambag'al, sizot suvlari ultrachuchuk, gidrokarbonatli, mineral tuzlar 0,1-0,15 g/l.

Tundra tuprog'i o'rmansiz, asosiy sabab yozgi harorat past, nisbiy namlik yuqori, kuchli shamol, muzloqli qatlam qalin.

Tundra zonasasi yosh. Neogen oxirida ham bu zona bo'lмаган, u kech va muzlanishlardan so'ng shakllangan. Amalda o'zlashtirilgan tundradan 150 s/ga ko'p hosil olsa bo'ladi.

Tayga tuproqlari. Tayga mustaqil zona (Milkov, 77, 63 b.), mo'tadil mintaqaga kiradi. O'rtacha iyul harorati 13-14° (shimolda) 18-19° (janubda). Yog'inlar 600-300 m, bug'lanish 250-500 mm. Eng qorli zona. Botqoq tayga uchun xos. Ayniqsa oligotrof (baland) botqoqliklar. Podzol tuprog'i keng tarqalgan. Tuproq yuqorisida kremnozem bo'lib undan Fe, Mg yuvilgan.

Shimoliy taygada gleyli-podzol, janubida esa chimli podzol, bunda gumus ko'proq. Tuproqda Ca kam. Ca kamligi uy hayvonlarini kasallanishiga sabab bo'ladi. Nordon reaksiyalari. Bunga ohak, organik, mineral o'g'it solish kerak. O'rta tayga fitomassaning umumiy zahirasi 150-300 sga, uning ? qismi yer betida, yillik usish 70-80 s/ga.

Yel-qog'oz uchun yaxshi xom ashyo.

Janubiy tayga- bu o'rmontaladir.

Aralash o'rmonlar tuprog'i. Atmosfera yog'lnlari 600-700-800 mm. Bu yerda ham namlanish koeffisiyenti birdan yuqori. Yuza oqim -350-150 mm. Sizot suvlari 100-500 mgl (sho'rلانishi). Botqiqlik, torfzorlar ko'p. Bu yerda tarqalgan.

O'rmon-dasht tuproqlari – bu zonaning shimoliy chegarasi – yesil gradusli izotermasi orqali ( $40^{\circ}$  shimoliy kenglik) o'tadi. Bunda ko'ng'ir daraxtning janubiy chegarasiga to'g'ri keladi. Yiginlar g'arbda 500-600 sharqda 300-400 mm. Namlanish koeffisiyenti 1,0-0,60 ga teng. Bu yerda lyossumus 1,5-2,0 %, ikkinchisida 1 % kam. 50 sm chuqruda 30-100 sm va lyossimon suglina yetakchi. Yozda yog'in ko'pligidan jarliklar ko'p. Ongalilikdagi gipsli qatlam bor. Bu yer landshaftlari kalsiyli-natriyli sinfiga jins karbonatli, sizot suvlari 0,5-1,0 gl tarkibga ega. Keng bargli o'rmonlar uchraydi. Bu zonada sho'rxok, taqir, taqirli tuproqlar mavjud. Kul moddalar yetakchi. O'rmon kulrang tuproqlar (serie lesnie). Qarag'ay uyumlari uchraydi. (solnie veshestva) bu yerda faol – kichik aylanma biologik xalqa hosil qiladi. (bori). Janubda o'tloqlar  $1 \text{ m}^2$  yerda 35 o'simlik turi bor. Bu yerda qora tuproq uchraydi. Dashtda emas, aynan o'rmon –dashtda unumdar qora tuproq uchraydi. Dashtda emas, aynan o'rmon –dashtda unumdar qora tuproq uchraydi. Dashtda emas, aynan o'rmon –dashtda unumdar qora tuproq uchraydi.

Bu yerda tipomorf element kalsiy hisoblanadi. Bir metrli qatlamda gumus miqdori: tga.

O'rmon bo'z (serie) tuproqda 175 tga.

Qora tuproqda:

Podzollashgan 452 tga

Yuvilgan (vichehenniy) 549 tga

Tipik qalin qorada 709 tga

Oddiy (o'rtacha gumuslida) 426 tga

Dasht tuproqlari – yillik yog'in 450-250 mm. Namlanish koefisiyenti 0,6-0,3. shimoliy qismida kam gumusli qora. Janubda esa to'q kashtan uchraydi. Oddiy qoratuproqda gumus 6-10 %, janubiy qora tuproqda- 6%, to'q-kashtanda 4-5 % gacha kamayadi. Gumusni tuprog'i va qalinligi dashtga qaraganda o'rmondashtda ko'p (157 b). Bu zonada solonsi, solonsli tuproqlar ham mavjud.

Fitomassa- 20-25 tga, uning 65-90 % tomir qismiga to'g'ri keladi.

Chala-cho'l zona tuproqlari. Quyosh radiatsiyasi 110-120 kkalsm<sup>2</sup> yilga teng. Yillik yog'in miqdori 250-150 mm. Namlanish koeffisiyenti 0,29-0,13. Bu yerdan och-kashtan tuproq xos. Chirindi miqdori 2,0-4,0 % Bu hududda o'tloq-chimli-podzol zonal tuproqdir. G'arbiy rayonlarda ko'ng'ir-o'rmon tuproqlar kashtan, solonslar ham bor.

Cho'l zonasasi (mo'tadil mintaqasi). Uning janubiy chegarasi yanvar oyining

Subtropik cho'llar tuproqlari.  $40^{\circ}$  shimoliy kenglikdan janubda mu'ozaralarini qayd qiladi va chegara deb nolinchı yanvar oyi izotermasini

Subtropik cho'llar chegarasi:

O'rta Osiyo janubiy cho'llarining tuproqlari ko'p jihatdan uning shimoliy qismi – mu'tadil cho'llarga yaqin turadi. Janubga borgan sari tuproqlarning karbonatligi ortib boradi.

Qayd qilish joizki mu'tadil cho'llar Ustyurt – Betpakdala, Muyunkum-Vettisuv bilan boglik. Turonning janubi subtropik, anikrogi chala subtropik cho'llarga kiradi.(Nazarov)

Urtayer dengizi zonasasi tuproqlari.

F.N.Milkov (1977) kayd qiladiki avvallari Kolxida, Lenqoran nam subtropik zona sifatida ajratilar edi. Uning fikricha bu zona Urtayer dengizi va uningsoxillariga kiradi. Shu zonaga Janubiy Krim, Zakavkaziya tekisliklari kiradi. Bu birlik ayniksa o'simlik xayvonotdunyosida uz aksini topgan deydi. Bu zonada tuproqlar provinsiallikka ega.

1) Krim-Kavkaz kserofit o'rmonlari. Bu «yarim quruq» subtropik bo'ladi. Ularning rangi qizil va sargish-qizil bo'lib, temir va alyuminiy Janubiy Krim, Qoradengiz buyi (Novorossiyskdan-Tuapsgacha) kiradi. Yozda gidroksidlarning miqdori ko'p bo'ladi.

barkaror subtropik antisiklon ustivor, quruq, issik, xavo ochik, kishda kutbly frontal siklonlari yetakchi seregin. U o'rmon, butalar yozda suvsizlikka duchon ular ostida jigarrang tuproqlar hosil bo'ladi. Gumus 4-7 %, gleylanish kuchli yetakechi (organik birikma). Nordon reaksiyali, kation kam, anion yuqori karbonatli-illyuvial qatlam 100-150 sm ga yetadi. Jigarrang tuproqni zonal de bo'ladi.

O'rtayer dengizi davlatlarida qabul qilingan. Qoradengiz buyida ham sh turdagi jigarrang tuproq hosil bo'lgan, bular serhosil.

2) Kolxida nam o'rmonlari tuproqlari. Yoginlar yil buyi 1500 mm ga yetadi. Tabiiy yer osti okimga ega bo'lgan, kengbargli o'rmonlar ostida kizzish sargish tuproqlar hosil bo'lgan. Kimyoviy, fizikaviy jarayonlar kuchliligida birlamchi, xatto ikkilamchi jinslar yemiriladi. Qatlamlarda alyuminiy, temir hidratlari oksidlari tupланади, бу кизгish sargish rang beradi. Bular chirindiga kambagal, nordon reaksiyaga ega, asos bilan tuyinmagan. Bu yerlarda choy sitrus yaxshi usadi. Qizgish, sargish tuproqlar zonaldir. Bu yerlarda allyuvial botqoq tuproqlarning turlari ham bor, ular kommatisiya qilinadi.

Qora quruq siyrak o'rmonlari va chalagul tuproqlari. Yoginlar sharkida 200-400 mm iyulda urtacha 26-28 °. Yanvar Q1,0 va – 1,0 atrofida. Shuvok-shuvok-shurular yetakchi ular malla –jigarrang tuproqda o'sadi (serokorichnevye), sho'rxoklar ham bor. G'arbda esa platolarda jigarrang tuproqlar xos (bodom ko'p).

O'rtayerdengiz zona landshaftlari keksa, kam o'zgargan neogen landshaftlaridir neogen nam o'rmon landshaftlari Kolxida Lenkarondagi saqlangan. Kolxida-Lenkaron pastekisligi esa juda yosh. Q davrda ular qultiq bo'lgan. Q davrda bu nam o'rmonlar ularni qoplagan. O'rmon yoshi esa neogenga teng («relikt o'rmonlar»).

Nam tropik, ekvatorial o'rmonlar tuproqlari. Bu yerlarda ferrallitli yoki lateritli tuproqlar keng tarqalgan bo'lib ular ferralitizasiya jarayoni tufayli hosil

Lotincha Ferrum- temir. Ferralitli tuproqlarda temirli qotishmalardan iborat qatlamlar uchraydi (lateritli qatlam). Chirindi 1,0-8-10 %, fulvo kislotalar yetakechi (organik birikma). Nordon reaksiyali, kation kam, anion yuqori karbonatli-illyuvial qatlam 100-150 sm ga yetadi.

O'rmonzorlar tozalanib sholi, shakar qamish, kofe, kakao eqiladi. Bu tuproqlar Markaziy, Janubiy Amerika tropiklari, Markaziy Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Avstraliyada keng tarqalgan.

### Nazorat savollari

1. Tuproq genezisi va evolyutsiyasi haqida nimalar bilasiz?
2. Tuproqlar qanday geografik tarqalgan?
3. Gorizontal zonallik qonuniyati qanday?
4. Vertikal zonallik qonuniyati qanday?
5. Tuproq klassifikatsiyasi haqida olimlarning fikrlari.

## 4-bob. O'zbekiston respublikasi tuproq qoplami

### Reja

1. O'zbekistonda gorizontal va vertikal zonallik qonuniyatlari asosida tarqalgan tuproqlar.
2. Bo'z tuproqlar zonasasi tuproqlarining geografik o'rni.
3. Cho'l zonasasi tuproqlari, ularning geografik rayonlashgani jihatlari.
4. Tog' va tog' oldi tuproqlarining geografik tarqalishi.
5. Avtomorf va gidromorf tuproqlar geografiyasi.

Bo'z tuproqlar cho'l mintaqasi sige tutashgan dengiz sathidan 150 (200) metrdan boshlab, tog' qismi 900-1000 metr balandlikkacha bo'lgan erlarda tekisliklarining yuqori qismi, adirli tog'li baland tekisliklar va hatto pastki tog' tarqalgan ekan, demak, bu yo'laklar ichidagi bo'z tuproqlarni asosan uchmaydonlarida paydo bo'ladi. By tuproqlarda ham och tusli bo'z tuproqlarda tipchaga (O'zbekiston uchun) bo'lamic. Bularga och tusli, oddiy (tipik) va to'q quraydigan o'simliklar to'dasi o'sadi, lekin bu erda shuvoq o'rniqa oq kuray tusli bo'z tuproqlari kiradi.

**Och tusli bo'z tuproqlar.** Bu tuproqlar cho'l -dasht mintaqasi sining eng o'simliklari keng tarqalgan. Tabiiy sharoitida bu tuproqlarda pista daraxtining quruq va issiq qismida paydo bo'lib, ular qadimgi allyuvial tekisliklari yuzin turlarini xam uchratish mumkin. (Mirzacho'l dashti ham), tog' osti tekisliklarining janubiy tog' qoyalari bo'yib, cho'l mintaqasi sidan tog'lik hududiga o'tishdagida, lekin o'rta va ostki qatlamlarida uning miqdori 9-12 % etadi. birinchi pog'ona hisoblanadi. Bu tuproqlarda chim hosil qiluvchi efemer va fiksuvenlik tarkibi bo'yicha mayda zarrachalarning (0,001mm) miqdori ham efermeriod o'tlari (rang, qo'ng'irbosh, boychechak, chuchmoma) qatlamlarida ko'proq bo'lgani uchun oddiy bo'z tuproqlar, och tusli bo'z tuproqlarga lolaqizg'aldoq, bug'doyiq), qisman shuvoq va quruq sho'ralar o'sadi.

Och tusli bo'z tuproqlarning oddiy va to'q tusli bo'z tuproqlardan asosiy farqi ham shundaki, bu tipcha mintaqasida yog'in miqdori oz (170-180 mm) bo'lgan uchun tuproqlari yaxshi yuvalmagan va ularning 1-1,5 metr, ba'zilarida esa hatoki 20-30 sm. chuqurligidan boshlab 05-0,6 % atrofida suvda eruvchi

surʼali tuzlar uchraydi. Shuning uchun ham bu tuproqlarda efemer o'simliklari bilan bir qatorda shuvoq zaxsho'ralar ham o'sadi.

Och tusli bo'z tuproqlarning chirindisi oz. Uning miqdori qo'riq erlarning chirindisi qatlama 1-1,5 % bo'lsa, sug'oriladigan tuproqlarning haydalma qatlama 1% atrofidadir (2-jadval).

Tuproqdagagi umumiy azot 0,06-0,1 %, fosfor-0,10-0,15 %. Chirindi qatlamlarining ( $A_hB$ ) qalinligi 40-70 sm, karbonatlarning miqdori A qatlama 1-1,5 % bo'lsa, B qatlama 8-9 % va undan ham ziyoddir (3-jadval).

**Oddiy (tipik) bo'z tuproqlar** och tusli bo'z tuproqlardan yuqorida Bo'z tuproqlar cho'l mintaqasi sige tutashgan dengiz sathidan 300 (500-800) metrdan balandlikkacha bo'lgan tog' osti tekisliklarining yuqori qismi, adirli tog'li baland tekisliklar va hatto pastki tog' tarqalgan ekan, demak, bu yo'laklar ichidagi bo'z tuproqlarni asosan uchmaydonlarida paydo bo'ladi. By tuproqlarda ham och tusli bo'z tuproqlarda tipchaga (O'zbekiston uchun) bo'lamic. Bularga och tusli, oddiy (tipik) va to'q quraydigan o'simliklar to'dasi o'sadi, lekin bu erda shuvoq o'rniqa oq kuray tusli bo'z tuproqlari kiradi.

**Och tusli bo'z tuproqlar.** Bu tuproqlar cho'l -dasht mintaqasi sining eng o'simliklari keng tarqalgan. Tabiiy sharoitida bu tuproqlarda pista daraxtining quruq va issiq qismida paydo bo'lib, ular qadimgi allyuvial tekisliklari yuzin turlarini xam uchratish mumkin.

Oddiy bo'z tuproqlarda gumus miqdori 1,5-2%, chirindi qatlaming miqdori 1-1,5 %, qatlamlarida CO<sub>2</sub> dengiz sathidan 150 metr balandlikdan boshlanib to 300-500 metr balandlikkacha carbonatning miqdori och tusli bo'z tuproqlarga qaraganda bir oz kamroq qadar erlarda paydo bo'lib, cho'l mintaqasi sidan tog'lik hududiga o'tishdagida, lekin o'rta va ostki qatlamlarida uning miqdori 9-12 % etadi. birinchi pog'ona hisoblanadi. Bu tuproqlarda chim hosil qiluvchi efemer va fiksuvenlik tarkibi bo'yicha mayda zarrachalarning (0,001mm) miqdori ham efermeriod o'tlari (rang, qo'ng'irbosh, boychechak, chuchmoma) qatlamlarida ko'proq bo'lgani uchun oddiy bo'z tuproqlar, och tusli bo'z tuproqlarga lolaqizg'aldoq, bug'doyiq), qisman shuvoq va quruq sho'ralar o'sadi.

**To'q tusli bo'z tuproqlar.** Tog' bag'irlarining yana ham yuqori qatlamlarida. Dengiz sathidan 500 (800) metrdan boshlab to 1000 (1200) metgaicha bo'lgan maydonlarda buz tuproqlarning bu tipchalari paydo bo'ladi. Buz tuproqlarning ko'pchilik maydoni adirlik, past tog'lik va o'nqir-

cho'nqirlardan iborat bo'lgani uchun sug'orib ekiladigan ekin maydonlari juda oz tarqalgan.

To'q tusli bo'z tuproqlar tarqalgan erlarning iqlimi u qadar issiq bo'lmay, yozi qisqaroq, umumiy yog'in miqdori 400-500 mm. bo'lib ba'zan undan ham ortiq, bahori ancha sernam, salqin va davomli, yoz esa unchalik issiq emas.

To'q tusli bo'z tuproqlarning tuzilishi oddiy bo'z tuproqlar tuzilishiga juda yaqin bo'lsa-da, lekin gumus miqdorining ko'pligi (3-4%), gumusli qatlaming qalinligi (80-120 sm), singdirish sig'imining kattaligi (13-18 mg/ekv) va mexanik tarkibining bip oz og'irligi bilan farq qiladi.

1-jadval

### Och tusli tipik va to'q tusli bo'z tuproqlarning gumus bilan ta'minlanganligi va genetik qatlamlarining qalinligi

Ko'rsatkichlar	Bo'z tuproqlar		
	Och tusli	Tipik	To'q tusli
Chirindili qatlam (A) ning qalinligi, sm	12-15	14-18	17-20
Chirindili qatlamdagagi chirindining miqdori, %	1-1.5	1.5-2.5	2.5-4.0
Chirindi rangining tarqalish quruqligi sm	40-60	50-90	60-120
2 metr qatlamdagagi chirindi zaxirasi t ga	50-70	70-100	100-150
Karbonat qatlaming yuqori chegarasi, quyi chegarasi, sm	12-20 50-10	15-25 70-120	20-40 90-150
Karbonat qatlamdagagi CO <sub>2</sub> ning miqdori, %	6-9	8-11	10-13

jadval

### Bo'z tuproqlar tarkibidagi gumus va umumiy azot miqdori

(B.V.Gorbunov, J.R.Ismatov va b. ma'lumotlari )

Tuproq tipi	Qatlam	Qatlam chuqurligi, sm	Gumus, %	Umumiy azot, %	C:N	
Och tusli bo'z tuproq	A1	0-4	1.42	0.103	8.0	
	A2	4-18	0.80	0.055	8.4	
	B1	18-37	0.46	0.038	7.2	
	B2	37-55	0.37	0.032	6.7	
	B3	55-72	0.27	0.027	5.8	
	C	72-120	0.17	0.015	6.5	
Mirzacho'l	C	120-140	0.15	0.014	6.2	
	Tipik bo'z tuproq,	A1	0-6	2.50	0.165	8.8
	Qashqadaryo havzasining chap qirg'og'i	A2	6-16	1.03	0.078	7.7
	B1	16-26	0.60	0.047	7.4	
	B1	26-40	0.40	0.038	6.1	
	B2	40-72	0.36	0.032	6.5	
To'q tusli bo'z tuproq, Angren	B3	72-100	0.21	0.023	5.3	
	C	130-205	0.16	0.017	5.5	
	Tipik bo'z tuproq, Angren	A1	0-4	3.96	0.251	9.2
	A2	4-14	2.49	0.164	8.8	
	B1	14-30	1.36	0.099	8.0	
	B2	30-65	0.66	0.053	8.0	
B3	65-100	0.44	0.037	7.2		
	100-140	0.34	0.030	6.9		
	BC	140-165	0.27	0.021	6.6	

	C	165-200	0.22	0.020	6.8
--	---	---------	------	-------	-----

### 3-jadval

#### Bo'z tuproqlar tarkibidagi fosfor va kaliy miqdori (B.V.Gorbunov, J.R.Ismatov va b. ma'lumotlari)

Tuproq tipi	Qatlam	Qatlam chuqurligi, sm	Fosfor		Kaliy	
			Yalpi, %	Harakat chan, mg/kg	Yalpi, %	Almashi nuvchan, mg/kg
Och tusli bo'z tuproq	A1	0-4	0.138	36.0	2.22	353.3
	A2	4-18	0.132	10.4	2.26	385.6
	B1	18-37	0.138	4.8	2.31	403.6
	B2	37-55	0.133	4.6	2.26	353.3
	B3	55-72	0.129	4.1	2.26	132.5
	C	72-120	0.126	5.5	2.22	98.3
Tipik bo'z tuproq, Qashqadaryo havzasining chap qirg'og'i	A1	0-6	0.233	117.6	2.41	723.0
	A2	6-16	0.222	22.8	2.57	565.0
	B1	16-26	0.187	7.2	2.67	537.0
	B1	26-40	0.183	6.8	2.52	442.9
	B2	40-72	0.135	5.1	2.18	365.3
	B3	72-100	0.109	1.0	1.91	133.0
	B3	100-130	0.116	0.7	1.78	84.3
	C	130-215	0.117	0.9	1.89	87.3
To'q tusli bo'z tuproq, Angren xavzasining chap	A1	0-4	0.209	86.8	2.41	770.7
	A2	4-14	0.174	14.4	2.47	457.9
	B1	14-30	0.166	6.6	2.36	369.4
	B2	30-65	0.139	4.1	1.99	164.8
	B3	65-100	0.129	0.9	1.81	106.4

qirg'og'i	B3	100-140	0.133	0.2	1.85	101.2
	C	140-200	0.131	1.5	1.96	12.4

Och tusli bo'z tuproq mintaqasida hosil bo'luvchi o'tloq tuproqlarini hammasi turli darajada sho'rangan bo'lsa, oddiy va to'q tusli bo'z tuproqlar mintaqasi sida hosil bo'luvchi o'tloqi tuproqlarda sho'r bo'lman, balki ularning shirindisi ancha ko'pdir.

Oddiy va to'q tusli bo'z tuproqlar zonasida paydo bo'lgan bu tuproqlar ham sho'rланishga moyil emasdir.

